shadilar. Siyosiy yetuklikka erishish uzluksiz jarayon bo‘lib, o‘qish, izlanish, axborotlardan boxabar bo‘lish va siyosiy hayotda faol ishtirok etish orqali rivojlanib boradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyati yuksak bo‘lgan siyosiy yetuk shaxs – shaxsning siyosiy ongi va faoliyatining qanchalik darajada shakllanganligi xarakterlovchi tushunchadir. Uning ushbu xislatlari bilimi, mas’uliyati, faolligi, prinsiplari, mustaqil tafakkur salohiyati orqali namoyon bo‘ladi. Undagi ushbu sifatlar esa obyektiv shart sharoitlar, subyektiv omillar ta’siri ostida shakllanib boradi. Demokratik jamiyat barpo etilish jarayonida mazkur obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar uyg‘unlashar ekan, shaxsning siyosiy madaniyati ham yuksala boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Almond C. The Civil Culture. Politikal Attitudes and Demograsy in Five Nations. Boston, 1969.

(2). Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура: политические установки и демократия в пяти странах. – Москва, “Мысль ”, 2014, 500 с.

(3). Актуальные проблемы современной зарубежной политической науки. Вып. 1. М., 1990.

(4). Блинов Н., Ожегов Ю., Шереги Р. Политическая культура и молодёжь. М., “Знание”, 1982.

(5). Фарушкин М.Х. Политическая культура общества. Социально-политические науки. 1991, № 4, с. 104–105.

Sattorova Shalola Bobir qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi f.f.f.d. (PhD)

MIRZO BEDIL IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALARINING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada mutafakkir Mirzo Bedil hayoti, uning falsafasiy ijodiga bog‘liq bo‘lgan va adolatli jamiyat, insonparvarlik g‘oyalari masalalariga, shuningdek, barcha asarlarida bo‘lgani kabi, insoniy fazilatlar: insonga hurmat, ilm va uning ulug‘vorligi, mehr-oqibat, rostgo‘ylik, mehnatse-varlik, kamtarlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, uzoqni ko‘ra bilish, sadoqat, qanoat, sabr-toqat, fikr-mulohaza, diqqat-e’tibor tasvirlanganligi uning g‘azallarini tahlil qilib berish orqali yoritilgan va uning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Bedil” atamasi, “Bedillik” ishqning mukammalligi, insonparvarlik, o‘zlikdan kechish, haqqa va xalqqa muhabbat, tafakkur egasi.*

Сатторова Шалола Бобир кизи (преподаватель кафедры обществознания Бухарского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук (Phd)

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ МИРЗО БЕДИЛЯ В ВОСПИТАНИИ ЦЕЛОСТНОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируется жизнь мыслителя Мирзо Бедиля, его философское творчество, вопросы справедливого общества, гуманистические идеи, а также изображение человеческих качеств, как и во всех его произведениях: уважение к человеку, величие знаний и мудрости, доброта, честность, трудолюбие, смирение, самодисциплина, дальновидность, верность, довольство, терпение, размышление и внимание, а также анализируется его роль в гармоничном воспитании поколения.*

Ключевые слова: *термин «Бедил», «Бедиллик» означает совершенство любви, гуманности, самоотречения, любви к истине и людям, мыслителя.*

Sattorova Shalola Bobir qizi (Teacher of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, PhD)

THE SPIRITUAL AND MORAL SIGNIFICANCE OF MIRZO BEDIL'S SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS IN RAISING A COMPLETE PERSON

Annotation. *The article analyzes the life of the thinker Mirzo Bedil, his philosophical work, and the issues of a just society, humanistic ideas, as well as the depiction of human qualities, as in all his works: respect for man, the greatness of knowledge and wisdom, kindness, honesty, hard work, humility, self-discipline, foresight, loyalty, contentment, patience, reflection, and attention, and analyzes his role in the harmonious upbringing of the generation.*

Keywords: *The term “Bedil”, “Bedillik” means the perfection of love, humanity, self-denial, love for truth and people, and a thinker.*

Kirish. XVII–XVIII asrlarda Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy to‘qnashuvlar Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu davrda Hindistonda

diniy va millatlararo masala muhim ahamiyatga ega edi. Mirzo Abdulqodir Bedil o‘z davrining ziyolilari orasida tarbiya olgan va ulg‘aygan. Mirzo Abdulqodir Bedil majzublar ta’sirida ko‘p sayyohlik qilgan, shuning uchun ko‘plab ijtimoiy muammolar va an’analar bilan yaqin tanishgan. Bularning barchasi Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Mirzo Abdulqodir Bedil jamiyat, uning tuzilishi, adolat va tenglik masalalariga katta e’tibor qaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. I.Mo‘minovning “Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy qarashlari”, S.Ayniyning “Mirzo Abdulqodir Bedil” monografiyalarida va X.Ayniyning “Mirzo Abdulqodir Bedil” va “Irfon” poemasi, S.Saljuqiyning “Naqdi Mirzo Abdulqodir Bedil” (“Mirzo Abdulqodir Bedil tanqidi”) asarlarida hamda K.Olimov, B.Hamdamovlarning maqolalarida[1] mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bir necha sahifalar bag‘ishlangan. Qayd etilgan mualliflardan Mirzo Abdulqodir Bedil ham boshqa ilg‘or mutafakkirlar singari yovuzlikka barham berish va ezgulikni qaror toptirish yo‘llarini izlaydi, diniy bag‘rikenglik, aqidaparastlik g‘oyalarini targ‘ib qilish, mazhabga oid urf-odatlarga qarshi turish, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi.[2] Mirzo Abdulqodir Bedil asarlarida saroydagi hayot, adolatsizlik, tamagirlik, shaddodlik, o‘zboshimchalik, aldov, munofiqlik hamda insonni majburan ishlatish tanqidga uchraydi.

O‘z shuuringdan bo‘l begona, Mirzo Abdulqodir Bedil
Jaholat sozin chal devona, Mirzo Abdulqodir Bedil,
Dud ila g‘ubordir bu dunyo bari,
Ko‘z yum, sabr qolsin bu xona, Mirzo Abdulqodir Bedil.[3]

Mirzo Abdulqodir Bedil bu misrada yashagan zamonasida munofiqlik, adolatsizlik, tengsizlik, jaholatsiz holatlarning mavjudligi va unga sabr qilish kerakligini bayon etadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida ijtimoiy-siyosiy mavzular o‘z o‘rniga ega. O‘zining asarlarida u ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilgan, jamiyatning tuzilmasini to‘g‘ri yolga qo‘yish bo‘yicha tavsiyalar bergan. O‘zining jamiyat, ijtimoiy o‘zgarishlar va davlat haqidagi qarashlarini u “Irfon” (“Bilish”), “Chahor unsur” (“To‘rt unsur”), “Nuqot” (“Hikmatlar”) kabi asarlarida bayon qilgan. Mirzo Abdulqodir Bedilning ko‘pgina ruboiylarida ijtimoiy-siyosiy va insonparvar qarashlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Mirzo Abdulqodir Bedil, xususan, islom va tasavvufning asosiy g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan. Shuning uchun u Naqshbandiya tariqatining g‘oyalari bilan tanish bo‘lgan. Mazkur tariqatning g‘oyalariga ko‘ra, ruhoniylar hukmdorlarga ta’sir qilishi mumkin. Ammo Mirzo Abdulqodir Bedil ushbu fikrga qarshi chiqadi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilganidek, faylasufning fikricha, inson o‘z taqdirining egasi bo‘lishi kerak. Naqshbandiya tariqatida inson tarkidunyochilikka berilishi kerak emasligi va mehnat bilan shug‘ullanishi kerakligi haqida g‘oya mavjud. Bu esa Mirzo Abdulqodir Bedilning fikriga to‘g‘ri keladi, chunki mutafakkir har bir mo‘min musulmon o‘z hayoti uchun mehnati bilan mablag‘ topishi kerak deb hisoblagan. Ushbu xulosaga Mirzo Abdulqodir Bedil o‘z tajribasi orqali kelgan.

Tahlil va natijalar. Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida Forobiy qarashlaridagi adolatli jamiyat kelib chiqishi, uning tuzilmasi va unda mavjud bo‘lgan aloqalar bo‘yicha aniq konsepsiya mavjud emas. Lekin bu haqida uning asarlarida ba’zi bir taxminlar mavjud. Masalan, faylasufning ijodida ijtimoiy guruhlarning tashkil topishi bo‘yicha g‘oyalarni ko‘rish mumkin.

Bedilning fikricha, inson yaxshi amallar qilib savob olishi, yomon ish qilib ziyon ko‘rishi mumkin va har bir ish jazo va savob olib keladi. Bedilning ta’kidlashicha, “Har bir harakat, nutq va fikrning reaksiyasi bo‘ladi, ya’ni, biror harakatni amalga oshirishimiz bilanoq, bizda bir kuch va taassurot paydo bo‘ladiki, u yaxshi yoki yomon, yaxshi yoki yomon bo‘lganiga qarab beradi. yaxshi yoki yomon baholash. Bu zarur shart-sharoit bajarilganda o‘sib, o‘sadigan urug‘ga o‘xshaydi”.[4] Demak, insonning hayotdagi xatti-harakatlarining natijalari inson o‘limdan keyin nimalarni boshdan kechirishini va boshqa tug‘ilishda qanday hayotga ega bo‘lishini belgilaydi.

1.Муминов И.М. Философские взгляды Мирзы Бедиля. Ташкент 1957; Айни С. Мирзо Абдулкодири Бедил. Сталинобод, 1954 (на тадж.яз); Айни Х.С. Бедил и его поэма “Ирфон”. Сталинабад: 1956; Олимов К.О. Баррасихо дар тасаввуф. Душанбе, 1999, с. 97–122; Олимов К.О. Китобномаи шарҳиҳоли. Душанбе, 2004, 72-бет.

2. Садикова Н.Н. Философская антропология Бедила. Дис. кандидата философских наук, 09.00.03. История философии. Душанбе, 2000, с. 114.

3. Бедил М.А. Осор. 5-том. Мухити аъзам. Душанбе, “Ирфон”. 1993, с. 112.

4. Садикова Н.Н. Философская антропология Бедила. Дис. кандидат философских наук, 09.00.03-История философии. Душанбе, 2000, с. 123.

Faylasuf Bedilning qimmatli asarlarida insonlarni zo‘ravonlikdan saqlanishga chaqiruvchi, insoniylik, qadr-qimmat, tinchlik yo‘liga chorlovchi Bedilni ko‘ramiz. Bu asarlar zulmga xizmat qiladigan, adolatni amalga oshirmaydigan hukumat, shubhasiz, xalq tinchligi va osoyishtaligining sharti emasligini ko‘rsatadi. Bedil ijodining qadri shundaki, inson abadiy tinchlikka, bag‘rikenglikka, zo‘ravonlikni inkor etishga bog‘lanadi.

Xulosa va takliflar. Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasi insonning intilishlariga asoslanadi, u o‘z she’riyatida insonning qadr-qimmati nafaqat uning boyligi bilan, balki bilim va malaka egallashi bilan ham belgilanishini e’tirof etadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil uchun insonparvarlik insonni haqiqiy taraqqiyotining asosiy mezonidir. Chunki u uchun, inson bu oy ostidagi dunyoda o‘z maqsadiga ega bo‘lgan, eng mukammal mavjudotdir. Mirzo Abdulqodir Bedil gumanizmi o‘zining ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha oliy axloqiy kategoriya hisoblanadi. Mutaffakir o‘z diqqat-e’tiborini asosan inson shaxsiyatining axloqiy mazmuniga qaratgan, uning insonparvarlik konsyepsiyasining markazida inson turadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil aytganidek, ilm-hunar egallab, ongli mehnat qilmaguncha “kishi yuziga iqbol eshigi ochilmaydi”.

Insonning qiymati emas siymu zar,

Insonning qiymati ilm ham hunar.

Demak, mustaqillik tufayli o‘rganish, tahlil etish ajdodlarimiz ma’naviy merosini chuqur o‘rganish bizning muqaddas burchimizdir. O‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Муминов И.М. Философские взгляды Мирзы Бедиля. Ташкент, 1957.

[2]. Muhammadiyeva O. Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi. Toshkent, “Yangi nashr”, 2016.

[3]. Mo‘minov I. Tanlangan asarlar. 1-jild, T., “Fan”, 1969.

[4]. Садикова Н.Н. Философская антропология Бедила. Дис. кандидат философских наук, 09.00.03. История философии. Душанбе, 2000, с. 123.

[5]. Falsafa entsiklopedik lug‘at. Toshkent, O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

[6]. Davronov Z. Falsafa. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Iqtisod – moliya”, 2006.

[7]. Nazarov Q. O‘zbek falsafasi. Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

[8]. Mirzo Abdulqodir Bedil Ruboiylar. Shoislom Shomuhamedov tarjimalari. Toshkent, 1986.

[9]. Sattorova Sh. “Mirzo Bedil falsafasida olam va odam munosabatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi.

[10]. Matnazar Abdulhakim tarjimalari. https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fors-tojiksheriyati/mirzo-bedil

[11]https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/jafar-muhammad-abulmaoniymanaviyati-bedil-hayoti-va-falsafiy-qarashlariga-chizgilar.html

[12]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘z-bekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/5841063 //

Islamova Komila Payzullayevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti, Samarqand, O‘zbekiston; komilaislamova@mail.ru)

MAORIFNI ISLOH QILISH BORASIDAGI MA’RIFATPARVARLIK HARAKATLARIDA SADRIDDIN AYNIYNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maorifni isloh qilish borasidagi ma’rifatparvarlik harakatlarida Sadriddin Ayniyning o‘rni haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Bunda jadidchilik harakatining keng tarqalishida Sadriddin Ayniy ijodi va faoliyati vositasida matbuot va ta’lim tizimi orqali xalq ma’naviyatini yuksalitrish borasidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Buxoro ma’rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik tarixidagi o‘rni, taniqli namoyandalari, uning siyosiy-ijtimoiy faoliyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Kolesov voqeasi”, Jadidchilik, “Tarbiya-yi atfol” (“Bolalar tarbiyasi”), “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”.*

РОЛЬ САДРИДДИНА АЙНИ В ДВИЖЕНИЯХ ЗА РЕФОРМУ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье представлена информация о роли Садриддина Айни в просветительском движении по реформированию образования. В нем приводятся сведения о широком рас-пространении движения джадидов благодаря трудам и деятельности Садриддина Айни, который способствовал повышению духовности народа через прессу и систему образования. Приведены важные сведения о месте Бухары в истории просвещения и прогресса, ее выдающихся деятелях, политической и общественной деятельности.*

Ключевые слова: *“Материалы к истории Бухарской революции», «Колесовское происшест-*